

**UMAVIYLAR XALIFALIGI DAVRIDA ANDALUS AYOLLARI
(316–422 HIJRIY / 929–1031 MILODIY): ULARNING SIYOSIY,
IQTISODIY, IJTIMOIIY VA MADANIY ROLI**

Imomaliyeva Muxlisabonu Xusanboy qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) fakulteti 4- bosqich talabasi

Daminov Bahromjon

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Arab tili va adabiyoti al-Azhar

kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Umaviylar xalifaligi davrida Al-Andalus ayollarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rnini yoritishga bag'ishlangan. Andalus ayollari jamiyatda muhim mavqega ega bo'lib, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etganliklari. Ular iqtisodiy sohada, xususan savdo-sotiq orqali oilaning moddiy ta'minotiga hissa qo'shganliklari hamda siyosiy jarayonlarda ham ayrim ayollarning ta'siri sezilarli bo'lgani haqida. Shuningdek, andalus ayollari ilm-fan va adabiyot sohalarida faoliyat yuritganlari haqida batafsil bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ayollar, Umaviylar xalifaligi, Andalus , siyosat , iqtisod, madaniyat

Abstract: This article is devoted to highlighting the role of women in the political, economic, and cultural life of Al-Andalus during the Umayyad Caliphate. Andalusian women held an important position in society and actively participated in social life. They contributed to the economy, particularly through trade, supporting the material needs of their families, and some women had a noticeable influence on political processes. In addition, the article provides a detailed discussion of the active involvement of Andalusian women in the fields of science and literature.

Keywords: women, El- caliphate, Andalus, politic, economic and culture

KIRISH. Andalusdagi islomiy sivilizatsiya nafaqat ilm-fan, madaniyat, aslilik, mukammallik va ijodkorlik sivilizatsiyasi, balki ayollarning intellektual ozodligi sivilizatsiyasi ham bo'lgan. Aslida, islomiy sivilizatsiya boshqa biror sivilizatsiyada uchramaydigan xususiyatlari va tarkibiy qismlari orqali o'zini namoyon qilgan bo'lib, zamonaviy sivilizatsiyaning shakllanishida muhim manba sifatida xizmat qilgan. Bu sivilizatsiya ayniqsa Andalusda porlab, Sharq va G'arbda shuhrat qozongan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, *hurlar* (ozod ayollar) va kanizaklar (qullikdagi ayollar) Andalus sivilizatsiyasining ravnaq topishida katta ta'sirga ega bo'lganlar. Shu sababli Andalus ayoli jamiyatda yuksak mavqega ega edi. Ana shu ulkan madaniy o'zgarishlar tufayli, shu maqola mavzusi quyidagicha nomlangan: «Umaviylar xalifaligi davrida Andalus ayollari (316–422 hijriy / 929–1031 milodiy): ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy roli.»

Mazkur maqolada Andalusiyada islom davri, ya'ni musulmon ayollari g'arb nuqtayi nazaridan ezilgan va jamiyatdan chetlatilgan deb hisoblangan bir davrda, ularning turli sohalarda faol ishtirok etganliklari tahlil qilinadi. Asosiy va qo'shimcha manbalar Andalus ayollari jamiyat, siyosat, iqtisodiyot, san'at va adabiyot sohaslarida kuchli ta'sirga ega bo'lganliklarini ko'rsatadi. Andalus tarixida ayollar salohiyatining yuzaga chiqishiga imkon bergan ko'plab omillar mavjud bo'lgan. Bu esa ularning donishmandligi va jamiyatdagi yuksak mavqeini tasdiqlaydi. Ushbu mavzuni chuqur o'rganish uchun oldingi tadqiqotlarga murojaat qilindi. Masalan, Dr. Aida Xoledning Bayrut universitetida yozilgan «Andalus tarixida ayollar» nomli doktorlik dissertatsiyasi Andalusda islomiy fathdan tortib uning qulashigacha bo'lgan davrni (qariyb 8 asr) qamrab oladi. Biroq, ushbu tadqiqot esa aynan 316–400 hijriy / 929–1009 milodiy yillar oralig'ini o'z ichiga oladi.

ASOSIY QISM. Andalus jamiyatida ayolning o'ziga xos mavqei mavjud bo'lib, u nafaqat iqtisodiy va madaniy hayotda, balki ijtimoiy hayotda ham faol ishtirok etgan. Ayollar siyosiy sohada ham ta'sir kuchiga ega bo'lib, bu ularning davlat

arboblari bilan aloqalari, ziddiyatlar, fitnalar, muxolifatdagi ishtiroklari, amaldorlarni yaqinlashtirish yoki chetlatish, siyosiy axborotlarni uzatish kabi faoliyatlarida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, xalifalarning rafiqalari bo'lgan Umaviy ayollari davlat ishlariga maslahat berish, fikr bildirish orqali aralashgan, ularning so'zlariga e'tibor berilishini istagan va bu ta'sir mavjud hukmdorning qudratiga bog'liq holda kuchayib yoki susayib borgan.

Ayollarning siyosiy sohadagi bevosita ishtiroki Andalusda xalifalik e'lon qilingan 316-hijriy/929-milodiy yilda Abdurahmon an-Nosir davrida boshlangan. U 325-hijriy/936-yilda Qurtuba (Kordova) shahrining shimoli-g'arbida o'zining suyakli xushro'y kanizagi Zahra tavsiyasi bilan "Zahro shahrini" bunyod etdi. Xalifa Zahraning fikrlariga amal qilgan, bu shahar arxitektura san'atining yuksak namunasi bo'lib, o'sha davrdagi iqtisodiy farovonlikni ham aks ettiradi. Abdurahmon an-Nosirning rafiqalaridan bo'lgan rumlik quli Marjon, Al-Hakam al-Mustansir Billohning onasi, o'zining siyosiy zukkoligi va go'zalligi bilan xalifaning yuragini zabt etib, uni o'z o'g'li Al-Hakamni valiahd etishga ko'ndira olgan. Saroydagi boshqa ayollar bu davrda deyarli siyosiy maydondan siqib chiqarilgan edi.¹¹⁹

Ikkinchi Umaviy xalifasi Al-Hakam al-Mustansir Billoh (350–366 H./961–976 M.) davrida siyosiy sahnada ayol ta'siri kuchaygan. Xususan, uning rafiqasi va Hishom al-Mu'ayyadning onasi Subh al-Bashkuniyya o'z o'g'lini taxtga o'tkazishda faol ishtirok etgan. Bu maslahat natijasida davlat boshqaruvida salbiy oqibatlar kuzatildi: Al-Hakam vafotidan so'ng Hishomning hokimiyatini qo'llab-quvvatlovchilar va unga qarshilar o'rtasida kurash boshlangan edi. Al-Mansurning o'g'li Abdulmalik ibn Abi Amir al-Muzaffar (392 H./1001 M.) hukmronligi davrida uning onasi al-Zulafa ham siyosiy ishlar bilan shug'ullangan. U vazir Issa ibn Yazid al-Qatta'ni o'ldirishga o'g'lini undagan. Bu hodisa Zulafaning farzandiga bo'lgan g'amxo'rliги va saroy ichki siyosatidagi ta'sirini ko'rsatadi. Shunday qilib, saroy quli bo'lgan bo'lishiga qaramay, bu ayollar, xususan Subh al-Bashkuniyya va al-

119 76-سحر عبد العزيز سالم. (1415هـ/1995م). دور الأسلوب في الأندلس في عصر الدولة الأموية. تونس: مجلة الدراسات الأندلسية، العدد 80

Zulafa, o'zlarining aql-zakovati va siyosiy mahorati bilan uzoq muddat davomida Umaviy saroyida muhim siyosiy rol o'ynaganlar.

Umaviylar xalifaligi davrida Andalusiyadagi ayollar mintaqaning iqtisodiy hayotida sezilarli darajada ishtirok etganlar. Ular ko'pincha oilaviy ehtiyojlarni ta'minlash maqsadida savdo-sotiqda faol qatnashganlar. Ko'pgina hollarda, ayollar bolalari va oilasining tirikchiligi uchun turmush o'rtoqlari bilan birgalikda ishlab, jun, paxta va zig'ir tolalarini yigirish va to'qish, so'ngra bularni bozor orqali sotish bilan shug'ullanganlar. Deyarli har bir Andalus uyi o'z to'quv stanog'iga ega bo'lgan, chunki bu kasb uyda uzoq vaqt qoladigan ayollar tabiatiga mos kelgan. Bu bir tomondan ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga, ikkinchi tomondan esa uy xarajatlarini yengillashtirish, er va bolalar uchun kiyim tikishga xizmat qilgan. Ba'zi hollarda esa ayollar butunlay oilani ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga olganlar. Shu bilan birga, ayrim ayollar bu sohada firibgarlikka ham qo'l urganlar. Masalan, muhtasib (bozorni nazorat qiluvchi vakil) Ibn Abdur-Ra'uf o'z maktublarida ip sotuvchilarga ipni quyoshda quritishni buyurgan, chunki ayollar yigirilgan ipni suv bilan namlab, og'irligini sun'iy ravishda oshirishga harakat qilganlar. Paxta va zig'ir to'plamlarini ham haddan tashqari yig'maslik buyurilgan, chunki bu ham firibgarlikning bir turi edi. Andalusiyalik ayollar ipak qurti yetishtirish bilan ham shug'ullanganlar, bu orqali eng nafis ipak matolar ishlab chiqarilgan. Ular o'zlari savdogar sifatida mustaqil safarlarga chiqqan, bir shaharni ikkinchisiga kezib, hech qanday to'siqsiz yoki tahdidsiz mol va pullarini olib yurganlar. Tarixiy manbalar ayollarning bozor faoliyatini tasdiqlaydi: ba'zilar bozorda oltin, kumush va qimmatbaho toshlar bilan savdo qilganlar.

Ayrim ayollar esa quldorlik savdosida ham muhim o'rin egallaganlar. Ularga bozorda alohida maqom «kotiba» berilgan. Bu ayol qul bozorida qullarni tozalash, ularning sog'lig'ini tekshirish va boy xaridorlar uylariga yetkazib borish bilan shug'ullangan. Mashhur andalusiyalik olim va faqih Ibn Hazm ayollarning mashhur kasblarini quyidagicha sanab o'tadi: "Ayollar orasida shifokor, hijoma qiluvchi, folbin, yo'l ko'rsatuvchi, soch tarovchi, motam tutuvchi, qo'shiqchi, ruhoniylar,

o'qituvchi, sartaresh, ip yigiruvchi va to'quvchilar bor" . Qishloq va dehqon jamiyatlarida bo'lgani kabi, Andalusiyadagi ayol ham oila faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, uyda va dalada ishlab, eriga yordam bergan. Ular yer egalik qilgan, mol-mulk ustidan mustaqil tasarruf qilish huquqiga ega bo'lgan. Fiqhiy manbalarda ayollarning yer va chorva egalari bo'lgani qayd etilgan. Aksariyat ayollar oddiy xalqdan bo'lib, mehnatsevar bo'lganlar. Ular pishloq ishlab chiqarish bilan shug'ullangan va "pishloqchi ayollar" deb nomlangan.

Umaviylar davrida Andalusda sanoat va hunarmandchilik sezilarli rivojlangan edi. Bu esa yangi iste'mol ehtiyojlarini yuzaga keltirib, ayollarning ham ushbu sohalarga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Andalusiyalik ayollar sanoatda faol ishtirok etib, turli hunarlarni o'zlashtirganlar. Ular daromad topishda va erlariga yordam berishda faol bo'lganlar. Ayollar ayniqsa to'qimachilikda – xususan "Dar at-Tiroz" (saroyga tegishli to'qimachilik uyi)da – faol ishlaganlar. Bu ustaxona xalifa Abdurahmon an-Nosir davrida gullab-yashnagan, kiyim-kechak, pardalar, haram liboslari va boshqa buyumlar tayyorlangan. Uning faoliyati xalifa Al-Hakam al-Mustansir va Hishom al-Muayyad davrida, shuningdek, al-Mansur ibn Abi Amir zamonida ham davom etgan.

Ayollar faqat hunarmandchilik bilan emas, balki ta'lim sohasida ham faol bo'lganlar. Ba'zi ayollar, xususan Hajja Maryam bint Abu Ya'qub al-Shalabi — adiba va shoir bo'lib, ayollarga adabiyotdan dars bergan. Raziya esa xalifa Abdurahmon an-Nosirning xizmatkori bo'lib, eri bilan birga Hajga borgach, Shom va Misrda ko'plab olimlardan tahsil olib, qaytganidan so'ng fiqh darslarini o'qitgan. Shuningdek, qozining opasi Umm al-Hasan ham ayollarga fiqh va ibodat ilmlarini o'rgatgan. Tibbiyot sohasida ham ayollar faol bo'lgan. Masalan, shifokor Abu Bakr ibn Zuhrning qizi Umm Amr ayollarni davolash, tekshirish va hatto erkaklar shifosi borasida fatvo so'rashga jur'at etgan. Shuningdek, andalus jamiyatida "kuyov topuvchi" ayollar – voistikalar ham bo'lgan. Ular kuyov nomzodlari bilan kelin tomonini tanishtirish, to'yga tayyorgarlik ko'rishda vositachilik qilganlar. Ibn Hazm bunday ayollar haqida: "Yoshi ulg'ayib, ma'naviy yetuklikka erishgan ayollar

oraliqda vositachi bo'lib, yetimlar quvonchi yo'lida xizmat qilganlar", – deya yozadi.

Andalusda diniy fanlar xalqlar orasida alohida mavqega ega bo'lgan. Bu holat, avvalo, fiqh ilmini rivojlantirgan olimlar va ularni o'rganishga da'vat qilgan faqihlarning faoliyati bilan bog'liqdir. Ko'plab olimlar diniy fanlarga katta e'tibor qaratib, ularni chuqur o'rganish va tadqiq etish orqali yuqori darajadagi salohiyatlarini namoyon etganlar. Andalus biografik manbalari o'rganilsa, bu fanlarga katta hissa qo'shgan ayollar haqida ham ko'plab ma'lumotlar uchratish mumkin. Mazkur fanlar mustahkam asos va o'rganishga undovchi xususiyatga ega bo'lganligi bois, erkaklar qatori ayollar ham bu sohada tahsil ola boshlaganlar. Ko'plab soliha ayollar vaqtlarining katta qismini fiqh ilmini o'rganish, hadislarini yod olish va ibodat bilan o'tkazganlar. Bu davrda andalus ayollari diniy fanlar sohasida Qur'on tilovati, oyatlarni sharhlash va Qur'on nusxalarini ko'chirish orqali ishtirok etganlar. Ular chiroyli xattotlik, aniqlik va yozuvdagi mahoratlari bilan tanilgan edilar. Kordovanning sharqiy qismida Qur'on ko'chirish bilan shug'ullangan 170 ayol bo'lgan. Sekta (Toifa)lar davrida Qur'on qiroati bilan mashhur bo'lgan Tuna bint Abdulaziz (Habiba) alohida ajralib turgan. Fiqh fanida ham ayollar muhim rol o'ynagan. Biografik manbalar qizlarga fiqh dars bergan mashhur ayollar haqida ma'lumot beradi. Masalan, xalifa Abdurahmon al-Nosirning cho'risi Rozia "faqih yulduzi" laqabini olgan va go'zallik hamda adabda mashhur bo'lgan. U tarix va latifalarni hikoya qilish san'atida mohir edi. U Abdurahmon al-Nosirning saroyida yashagan, so'ngra uning o'g'li al-Hakam al-Mustansirga topshirilgan. Al-Hakam uni otasidan ozod qilib, o'zi uylangan va 353-hijriy yilda u bilan birga haj qilgan.¹²⁰

Yana bir mashhur faqih ayol — Fatima bint Yahyo ibn Yusuf al-Mag'omiy, Tolido atrofidagi qishloqlardan chiqqan. U taqvodor, faqih va olima bo'lgan. U Kordovada yashab, 389-hijriy/998-milodiy yilda vafot etgan. Uning dafn marosimida ko'plab olimlar qatnashgan, bu esa uning ilmiy maqomi va fazilatiga bo'lgan hurmatni

¹²⁰ Salah Khalis(1965)Seville in the fifth century AH -historical literary study - the emergence of the Banu Abbad state in Seville and the development of literary life there, Somaya Press, Beirut.

ifodalaydi. Hadis ilmidagi ishtirok ham ayollar orasida keng tarqalgan. Ular Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarini rivoyat qilish bilan shug'ullanganlar. Xadicha bint Ja'far ibn Nusayr al-Tamimiy, faqih Abdulloh ibn Asadning rafiqasi, hadis ilmi bo'yicha yetuk bo'lgan. U o'z eridan rivoyat qilgan va ko'plab kitoblarini qiziga topshirgan.

Andalusliklar tibbiyot sohasida sezilarli yutuqlarga erishib, insoniyatga muhim ilmiy kashfiyotlar hadya etganlar. Tibbiyot — Andalusda amaliy fanlarning yetakchisi bo'lgan va keng ilmiy meros qoldirilgan. Bu fanlar, jumladan farmatsiya, andalusliklar orasida alohida e'tibor va ehtiromga sazovor bo'lgan. Ayollar ham tibbiyot amaliyotida faol qatnashganlar. Ular ayniqsa, dorivor o'simliklardan davo sifatida foydalanishda usta bo'lganlar. Ular bu o'simliklarni nafaqat davolashda, balki go'zallik va teri parvarishida ham ishlatganlar. Ibn Usaybi'a *Uyun al-Anba' fi Tabaqat al-A'tibba'* asarida mashhur tabib Ibn Zuhurning opasi va jiyani ayollarni davolashda mohir bo'lganini qayd etadi.

Hisob-kitob (matematika) sohasida esa xalifa al-Hakam al-Mustansirning kotibasi Lubno alohida ajralib turgan. Ibn al-Abbar uning haqida "saroydagi eng nufuzli ayol edi", deb yozadi.

Avvalo, ayollarning adabiyot sohasidagi ishtirokiga kirishishdan oldin, adabiyotning ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinishi lozim. Andalusda o'sha davrdagi ijtimoiy, ilmiy va adabiy harakatlarning rivojlanishiga ko'plab omillar sababchi bo'lgan. Eng muhimlaridan biri shuki, ayrim andalusliklar sharqqa, ya'ni mashriqqa sayohat qilib, u yerdan ilm olish va o'rganish uchun borishgan, keyin esa olgan bilimlarini Andalusga qaytarib, xalq orasida tarqatishgan. Shuningdek, kitoblar to'plash va talabalar hamda tadqiqotchilar uchun jamoat kutubxonalarini tashkil etish keng yoyilgan edi. Andalus xalifalari olimlarga va ilm-fanga katta qiziqish bildirganlar, ularni o'z atrofida to'plash uchun raqobat qilganlar. Ular faqat yozuvchilar, shoirlar yoki olimlardan maslahat olishni afzal ko'rishgan.

O'sha davrda andalus ayoli jaholat va savodsizlik zulmatida qolmagan, aksincha o'zining jamiyatdagi mavqeini oshirish va oldinga siljishi uchun imkoniyatlardan

foydalanishga harakat qilgan. Ta'lim ayol uchun ochiq eshik bo'lib, u orqali u jamiyatda hurmat va ishonch qozongan. Bu esa ayollar orasida ta'lim tarqalishini, shuningdek, ko'plab andalus ayol shoirlarning mavjudligini ta'minlagan. Andalus ayollari ilmiy tajriba, asbob-uskunalar va vaqt talab qiladigan adabiyotga qiziqish bildirganlar. Bu ularni yuqori bilim darajasiga ko'tarib, boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lishga undagan. Ko'pchilik ozod ayollar jamiyat bilan aralashmasdan uyda qolishni afzal ko'rishgan, ayniqsa, qullikda bo'lgan ayollar.¹²¹ Tarixiy manbalar adabiyotda faoliyat ko'rsatgan ayollar — shoirlar, nasr yozuvchilar va tanqidchilar haqida xabar beradi. Bir ayol yuqori darajadagi mahoratga ega bo'lishi va erkaklar ishonchini qozonishi uchun uning arab tili fanlarini puxta o'rganishi shart edi. Aks holda, uning she'riyoti zaif, adabiy maqomi pasaygan bo'lar edi. Shu bois, Andalusda erkaklar bilan bir qatorda ko'plab ayol shoirlar ham mavjud edi. Andalus muhiti ayol shoirlar bilan bezalgan bo'lib, ular andalus adabiyotining boyishiga sezilarli hissa qo'shganlar. Ko'plab ayol shoirlar o'zining qadr-qimmat va yetukligi bilan ajralib turib, andalus she'riyatining muhim qismiga aylanganlar. Ular erkaklar bilan birga she'riyat va nasr sohasida faoliyat yuritib, o'ziga xos andalus jamiyatining shakllanishiga hissa qo'shganlar.

Ushbu davrning eng nufuzli ayol shoirlaridan biri — Al-Mu'tamid ibn Ayyadning kanizi Rumaykiya bo'lib, u she'riyatdagi iste'dodi bilan mashhur bo'lgan. U Al-Mu'tamidning she'riga satr qo'shish san'atida o'z mahoratini namoyon qilgan va shu bois uning hurmatiga sazovor bo'lgan. Shuningdek, Al-Rumaykiyaning qizi, Butayna bint al-Mu'tamid ibn Abbad, o'zining go'zalligi, nozik ruhiyati va she'riyatidagi mahorati bilan ajralib turgan. Siyosiy voqealar uning she'riy mahoratini yanada takomillashtirishga ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqotda nomlari tilga olinmagan ko'plab ayol shoirlar ham mavjud.

Xalifalik hukmdorlari davrida Andalus ayollari Umaviylar madaniyatining rivojlanishida muhim rol o'ynaganlar. Ayollar hayotning asosi bo'lib, siyosiy,

¹²¹ Al-Tahir Ahmed Makki (1981) *Andalusian Studies in Literature, History, and Philosophy*, Dar Al-Maaref, Egypt.

iqtisodiy, madaniy va intellektual sohalarda faol ishtirok etganlar. Ushbu davrda ayollarning siyosiy hayotga qo'shgan hissasi aniq edi. Iqtisodiyot sohasida ham andalus ayollarining o'рни aniq bo'lgan. Ko'pincha ular oilaviy ehtiyojlarni qondirish uchun savdoda faol bo'lganlar. Oila farovonligi va farzandlarning ta'mini uchun erlariga yordam berib, jun, paxta va zig'ir iplarini o'rish va to'qish, shuningdek, mahsulotlarni bozorlarda sotish bilan shug'ullanganlar. Bundan tashqari, ular turli sanoat va hunarmandchilik sohalarida ham faoliyat yuritishgan. Ilmiy sohada Andalus ayollari diniy fanlarga, jumladan Qur'on tilovat qilish, uning oyatlarini sharhlash va Qur'on yozish kabi faol ishtirok etishgan. Islom huquqi va hadis ilmlarida ham ular katta muvaffaqiyatlarga erishgan, bu esa asosan ularni qo'llab-quvvatlagan olimlar va xalqning o'zlari tomonidan rag'batlantirilishining natijasi edi. Adabiyot sohasida andalus ayollari Andalus xalifalarining ilm-fanga va olimlarga qiziqishi hamda adabiyot sohasidagi ayollarni o'z atrofida jamlash uchun olib borgan raqobati tufayli qadam qo'yganlar. Ular faqat yozuvchi, shoir yoki olimlardan maslahat olishni ma'qul ko'rishgan. Ayol yozuvchilar va shoirlar yuqori darajadagi mahoratga erishishlari va erkaklarning ularning fikriga ishonch bildirishlari uchun arab tili fanlarini chuqur bilishlari, keng madaniy va ilmiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- (1) ابن عذاري المراكشي. (1980). البيان المغرب في أخبار الأندلس والمغرب. تحقيق ج.س. كولان وليفي بروفنسال، المجلد الثاني، الطبعة الثانية، دار الثقافة، بيروت.
- (2) ابن عبد الملك. (2012). الذيل والتكملة لكتابي الموصول والصلة. المجلد الثاني، تحقيق إحسان عباس ومحمد بن شريفة، دار الغرب الإسلامي، تونس، الطبعة الأولى.
- (3) السامرائي، خليل إبراهيم وآخرون. (1982). تاريخ العرب وحضارتهم في الأندلس. دار الكتاب الموحد الجديد، الطبعة الثانية، بيروت، لبنان.
- (4) ابن القاسم. المقصد المحمود في اختصار العقود وما يتعلق بها من الفقه والشروط. المكتبة الوطنية بتونس، مخطوط رقم 8815.
- (5) النباهي، أبو الحسن بن عبد الله المالقي. (1983). تاريخ قضاة الأندلس وسماء كتاب المرتبة العليا لمن يستحقها، تحقيق لجنة إحياء التراث العربي. بيروت: دار الآفاق الجديدة، الطبعة السابعة

(6) سحر عبد العزيز سالم. (1415هـ/1995م). دور الأسلوب في الأندلس في عصر الدولة الأموية. تونس: مجلة الدراسات الأندلسية، العدد 83

7) Al-Tahir Ahmed Makki (1981) *Andalusian Studies in Literature, History, and Philosophy*, Dar Al-Maaref, Egypt.

8) Turdiyeva, Y. The Phenomenon OF Artistic Style in Uzbek Literature. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 6(12), 22-23.

9) Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.

10) Turdiyeva, Y. The Portrait and Its Functions in the Work. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 4(12), 1-3.

11) Turdiyeva, Y. Individuality Of The Literary Style (Based On The Novel “People In The Heat” By Luqmon Borikhan). *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 17-18.

12) Jo‘rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.

13) TOSHMATOVA, S. (2024). EXPLORING INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCE MOTIVATION AMONG EFL STUDENTS. *News of the NUUZ*, 1(1.10. 1), 208-209.

14) Abdusalomovna, S. M. (2025). ERKIN A’ZAM NASRIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 17(02), 747-749.

15) АЛИЕВА, Д. ПРОБЛЕМЫ ФОНЕТИКИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQ TA’LIMI*, 91.

16) TURAEVA, B., & KUCHIMOV, U. POETIC MODELS OF THE CONCEPT “LITERARY TIME”.

17) Azimboyevna, Y. S. (2024). Jahon va o‘zbek fantastik asarlarida takroriy motiv tushunchasi va uning badiiy talqini. *Research Focus*, 3(Special Issue 1), 19-23.